

Til o'rgatishda sun'iy intellektdan foydalanish

Ayxodjayeva M.S.

O'zDITSU dotsenti

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellektning pedagogik qiymati, ya'ni ga ta'limni individuallashtirish, kundalik vazifalarni avtomatlashtirish, amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish va darsda interaktiv muhit yaratish kabi masalalarida yaxshi yordamchi bo'la olishi xususida so'z boradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning joriy etilishi an'anaviy usullarni qayta ko'rib chiqishni, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini ta'minlash va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqishni talab etishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, o'qituvchining roli, raqamli savodxonlik, ta'limni raqamlashtirish.

Аннотация. В статье рассматривается педагогическая ценность искусственного интеллекта, то есть то, что он может стать хорошим помощником в таких вопросах, как индивидуализация обучения, автоматизация повседневных задач, расширение возможностей практики и создание интерактивной среды на уроке. В то же время отмечается, что внедрение искусственного интеллекта требует пересмотра традиционных методов, обеспечения цифровой грамотности учителей и разработки этических норм.

Ключевые слова: искусственный интеллект, роль учителя, цифровая грамотность, цифровизация образования.

Abstract. The article examines the pedagogical value of artificial intelligence, namely that it can become a good assistant in matters such as individualizing learning, automating daily tasks, expanding practice opportunities, and creating an interactive environment in the lesson. At the same time, it is noted that the implementation of artificial intelligence requires a revision of traditional methods, ensuring digital literacy for teachers, and developing ethical norms.

Keywords: artificial intelligence, teacher's role, digital literacy, digitalization of education.

Dolzarbli. So'nggi yillarda ta'lim sohasida sun'iy intellekt (SI) tushunchasiga munosabat tubdan o'zgarib boryapti: u pedagog mutaxassislar qo'lidagi eng muhim texnologiyalardan biriga aylandi. Yangi matn yaratish, nutqni tahlil qilish va real vaqt rejimida ta'lim oluvchilar bilan muloqot qila oladigan til modellarining keng tarqalishi o'qituvchining rolini qayta ko'rib chiqishga va tillarni o'qitish usullarini o'zgartirishga olib kelmoqda.

SI deganda inson ongi oldiga qo'yilgan kognitiv vazifalarni hal qila oladigan tizimlar tushuniladi.

SI ning pedagogik qiymati ta'limni individuallashtirish, kundalik vazifalarni avtomatlashtirish, amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish va interaktiv muhit yaratish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, SI ni joriy etish an'anaviy usullarni qayta ko'rib chiqishni, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini ta'minlashni va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili. Olimlarning ta'kidlashicha, neyron tarmoqlarining lingvodidaktik imkoniyatlari umuman ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga, oliy ta'lim muassasasida chet tilini o'qitishning yangi usul va uslublari paydo bo'lishiga, individual ta'lim yo'nalishlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini sezilarli darajada optimallashtirishga yordam beradi [1, 2, 6].

Xorijiy mualliflarning ishlari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt o'quvchi yoki talabaning bilish darajasini tahlil qilishi va tegishli murakkablikdagi topshiriqlarni avtomatik ravishda tanlashi mumkin. Bunday tizimlar motivatsiyani oshiradi va individual ta'lim yo'nalishini belgilaydi [3].

Ko'pgina tadqiqotchilar chat-botlardan gapirish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli foydalanish ijobiy natijalar berishini e'tirof etadilar. Ular yordamida o'quvchi gapirishni xavfsiz mashq qiladi va tezkor ravishda savollariga javoblar oladi [5].

А.А.Пискун, М.Н.Невзоров, Т.Н.Шурухина fikricha, chat-botlarning samaradorligi jonli muloqotni to'liq almashtirish emas, balki ularni haqiqiy muloqot amaliyotlari bilan uyg'unlashtirish orqali oshadi.

Haqiqatan, ta'lim jarayonida ChatGPT, YaGPT va boshqa tarmoqlardan foydalanuvchi o'qituvchi endi yagona ma'lumot manbayi bo'lishdan to'xtab, moderator, tyutor va tahlilchiga aylanadi. SI funksiyalarni qayta taqsimlash imkonini beradi: mashina kundalik amallarni bajaradi, o'qituvchi esa tanqidiy fikrlash va muloqot ustida ishlaydi.

SI odatda bir necha soat davom etadigan o'quv materiallarini tayyorlash jarayonini qisqartirib, daqiqa ichida lug'at va grammatikaga oid mashqlar, o'qish uchun matnlar, javobni tanlashga asoslangan yoki ochiq savolli testlar, mavzu yuzasidan dialoglar tuzib bera oladi. U materialni har bir o'quvchi yoki talabaning bilim darajasiga moslashtirishga yordam beradi, murakkab matnni soddaroq matnga aylantirish yoki aksincha, murakkablashtirish, shaxsiy vazifalar tuzish, muayyan o'quvchining qiziqishlariga (sport, musiqa, texnika va h.k.) muvofiq yondashish shular jumlasidan.

SI muloqot bo'yicha sherik sifatida harakat qilishi: rol ijro etiladigan o'yinlarda ("Sen mehmonxona xodimi, men mehmonman", "Ishga kirish uchun suhbat" va b.) hamsuhbat bo'lib, o'quvchilarning og'zaki nutqni mashq qilishi, o'z xatolarini anglab, tuzatishiga imkon beradi.

SI quyidagilarni bajara oladi:

- talabaning matndagi xatolarini tuzatish,
- ularni sodda tilda tushuntirish,
- yaxshilangan variantlarni taklif etish,
- o'quvchidagi o'sishni kuzatib borish.

SI o'quvchilarda yozish ko'nikmalarini hosil qilish va takomillashtirish, masalan, insho yoki esse uchun g'oyalar yaratish, matn rejasini tuzish, qoralamalarni qayta ishlash, nutq uslubini aniqlashtirish va boshqa ishlarda yordam bera oladi.

Demak, SI o'qituvchi uchun doimo tanqis bo'lgan vaqtni tejaydi va uning dasturlar tuzish, darslarni rejalashtirish, tarqatma materiallarni tayyorlash, uy vazifalarini tuzish, testlar ishlab chiqish va ularni tekshirish singari kundalik mayda, zerikarli ishlarini avtomatlashtirishga ko'maklashadi. Lekin qo'shimcha vosita sifatida har qancha qulay bo'lmasin, SI o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, balki yordamchi, xolos. U ishni tezlashtiradi, lekin shuni bilish muhimki, pedagogik mantiqni shakllantira olmaydi va noaniqliklarga yo'l qo'yadi. Ishonchlilik nuqtayi nazaridan murakkab holatlarda, hal qiluvchi imtihonlarda ishlarni har ehtimolga qarshi o'qituvchining o'zi tekshirgani maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Есионова Е.Ю. Искусственный интеллект как альтернативный ресурс для изучения иностранного языка / Е.Ю. Есионова // Гуманитарные и социальные науки. — 2019. — № 3. — С. 155–166.
2. Ивахненко Е.Н. ChatGPT в высшем образовании и науке: угроза или ценный ресурс? / Е.Н. Ивахненко, В.С. Никольский // Высшее образование в России. — 2023. — Т. 32. — № 4. — С. 9–22.
3. Кромптон Х., Эдметт А., Ичапория Н., Берк Д. Искусственный интеллект и преподавание английского языка: возможности и проблемы.
<https://bera-journals.onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/bjet.13460>
4. Пискун А. А., Невзоров М. Н., Шурухина Т. Н. Педагогический ресурс искусственного интеллекта в профессионально-ориентированном обучении иностранному языку. Журнал «Вестник Ленинградского государственного университета имени А. С. Пушкина», 2025.



5. Полюдова Е.Н. Искусственный интеллект в преподавании иностранных языков: опыт использования в высшем образовании. *Открытое образование*. 2025; 29 (4): 4-18. <https://doi.org/10.21686/1818-4243-2025-4-4-18>

6. Ayxodjayeva M.S., Ismatova R. Tillarni o'rganishda sun'iy intelltektidan foydalanish: ijobiy jihatlari va kamchiliklari. "Yuksalish strategiyasi: til ta'limi sohasida innovatsion usullar, texnologiyalar va amaliyot" ilmiy-nazariy anj. mat-llari. Chirchiq, 2026-yil 27-mart.